

SA'DIY SHEROZIY "GULISTON" ASARI OGAGHIY VA SAYFI SAROYI TARJIMALARIDA TIL VA USLUB MASALASI

Karimova Nigina Xurshid qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU 401-guruh talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors-tojik adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Sa'diy Sheroyning "Guliston" asarining o'zbek tiliga Ogahiy hamda Sayfi Saroyi tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari til va uslubiy xususiyatlar nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilinadi. Tarjimonlarning tarixiy-madaniy kontekstdagi o'rni, ularning tarjima uslubi, badiiylikka yondashuvi, leksik va grammatik vositalardan foydalanish xususiyatlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Sa'diy Sheroy, "Guliston", Ogahiy, Sayfi Saroyi, tarjima, uslub, badiiylilik, qiyosiy tahlil.

Abstract. This article presents a comparative analysis of the linguistic and stylistic features of the Uzbek translations of the "Gulistan" by one of the greatest representatives of Persian-Tajik literature, Saadi Shirazi, carried out by Ogahiy and Sayfi Saroyi. The study examines the translators' roles within their historical and cultural contexts, their translation strategies, approaches to artistic expression, and the specific use of lexical and grammatical devices.

Keywords: Saadi Shirazi, Gulistan, Ogahiy, Sayfi Saroyi, translation, language, style, artistic expression, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ языковых и стилистических особенностей узбекских переводов произведения "Гулистан" одного из крупнейших представителей персo-таджикской литературы Саади Ширази, выполненных Огахи и Сайфи Сарои. Исследуются место переводчиков в историко-культурном контексте, их переводческие подходы, отношение к художественной выразительности, а также особенности использования лексических и грамматических средств.

Ключевые слова: Саади Ширази, Гулистан, Огахи, Сайфи Сарои, перевод, язык, стиль, художественная выразительность, сравнительный анализ.

Kirish. Sa'diy Sheroyning "Guliston" asari Sharq adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin egallagan, axloqiy-falsafiy hikmatlar bilan to'la, badiiy jihatdan mukammal asardir. Ushbu asar o'zbek mumtoz adabiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Ogahiy va Sayfi Saroyi kabi yirik tarjimonlar ushbu asarni o'zbek

tiliga tarjima qilganlar. Har ikki tarjima o'z zamonasi, ijtimoiy-madaniy muhit, shuningdek, tarjimonning estetik didi va til imkoniyatlariga bog'liq holda shakllangan. Sayfi Saroyi "Guliston" tarjimasini bilan o'z ismini turkiy adabiyotga oltin harflar bilan yozgan tarjimon va shoirdir. Asarlarini turk tilining qipchoq lahjasida yozgan. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlar uchun o'z davrida o'rnatilgan asar hisoblanadi. Hatto maktablarda darslik sifatida o'qitilgan. Tarjimalarning tili xususiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, turkiy tillarni davrlashtirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, "Guliston bit-turkiy" eski turk davrida yozilgan asar hisoblanadi. Bu davr tilining o'ziga xos bir necha xususiyatlari bor: tovushlarning talaffuzida, so'zlarning qo'llanilishi, gap bo'laklarining o'rni va boshqalar. Sayfi Saroyi tarjimasidagi asar tili, Ogahiy tarjimasidagi asar tili va bugungi kundagi tilimizning ham ba'zi so'z va qo'shimchalarida ba'zi o'zgarishlarga duch kelamiz. Ogahiy tarjimasida ba'zi jihatlari bilan Sayfi Saroyi tarjimasiga o'xshash. Ikkala tarjimaning ba'zi joydagi hikoyatlari deyarli bir xil. Masalan: Ulug'lardan bir kimersa bir porso erga so'rdi: "Falon obid haqqina ne aytursan? Ko'b ta'nali so'zlar aning uchun derlar". Aytti: "Zohirinda ayb ko'rmon, botininda g'ayb bilmon". "Guliston bit-turkiy" da keltirilgan hikoyatdagi "kimersa" (kimdir olmoshi o'rnida), "so'rdi" (so'radi fe'li o'rnida), "er" (kishi oti o'rnida), "aning" (uning olmoshi o'rnida), kabi so'zlar, haqqina so'zidagi -na qo'shimchasi (jo'nalish kelishigi -ga o'rnida qo'llangan), aytti so'zidagi -ti (o'tgan zamon qo'shimchasi-di o'rida), ko'rmon va bilmon so'zlaridagi mon qo'shimchalari (bo'lishsizlik -ma, zamon-di va shaxs-son-m) aynan eski turk davri tiliga xos. Bularidan tashqari "Guliston bit-turkiy" da "emas" to'liqsiz fe'li o'niga qadimgi va eski turk davrida qo'llanilgan va bugungi kunda ham turk tilida mavjud bo'lgan "deg'il" so'zi qo'llangan. Ogahiy tarjimasida esa bu so'z bugungi kunimizdagi til uslubida, ya'ni "emas" shaklida qo'llangan. Yana bir misol: eng yangi davr va yangi turk davrida (Ogahiy davrida) qo'llangan "ozuqalanmoq" so'zi o'rida "Guliston bit-turkiy" da eski turk davriga xos bo'lgan "beslenmek" so'ziga ham ko'zimiz tushadi. Shu kabi yana bir qancha eski turk davriga xos bo'lgan so'zlarni uchratishimiz mumkin. Xuddi shu hikoyat Ogahiy tarjimasida quyidagicha berilgan: Ulug'larning biri bir porso kishiga dedi: "Falon obidning haqida na so'z aytursankim, o'zgaralar aning izidin ta'na qilib, ko'b so'z ayturlar". Porso dedi: "Zohirida hech ayb ko'rmasmen va botinida na aybi borin bilmasmen". Bu yerda "na" so'zi ikki bor qo'llangan va "qanday" so'roq olmoshi o'rnida qo'llangan. "Aytursankim", "ko'rmasmen", "bilmasmen" kabi o'sha davrga xos bo'lgan fe'llar, "aning" kishilik olmoshi ham qatnashgan. Ogahiyning tarjimasini keyingi asrlarga oid bo'lgani uchun Sayfi Saroyinikiga nisbatan bugungi adabiy tilimizga

yaqinroq. “Guliston”ning nasr va nazmi Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjimalarida, asosan, nazmda bir qancha farqlar kuzatiladi. Yana bir hikoyatda shunday deyilgan: bir vazirning bir bilimsiz, axloqsiz o‘g‘li bo‘lib, uni bir donishmandga tarbiyalanishga va ilm o‘rganishga beradilar. Bu donishmand ko‘p muddat bilim va tarbiya beradi, ammo foydasi bo‘lmaydi. Bolaning otasiga odam yuborib, shunday gaplarni aytadi: sening bu o‘g‘ling hech qachon oqil bo‘lmaydi, lekin meni aqldan ozdiradi. Hikoyatdan keyin ushbu she‘r berilgan:

Chun buvad asli gavhari qobil,
Tarbiyatro dar o asar boshad.
Hech asayqal nako nadonad kard
Ohanero, ki badguhar boshad.

Asarning asl nusxasida bu she‘r bolaning otasiga yuborilgan odam tilidan aytiladi. Ogahiy tarjimasida ham aynan shunday. Ammo “Guliston bit-turkiyda” otasining oldiga yuboriladigan kishiga donishmandning o‘z tilidan aytiladi. Sayfi Saroyida quyidagi uslubda berilgan:

Javhari asl ul durur qobil-
Kim, anga tarbiyat asar qilg‘ay.
Sayqal urasa, ochilmag‘ay hargiz,
Ul temurkim ko‘ki yomon bo‘lg‘ay.

Bu hikoyat Sayfi Saroyida asl nusxaga yaqinroq tarjima qilingan, ya‘ni aynan so‘zma so‘z asl nusxa bilan bir xil va ma‘nosi ham juda yaqin. Ogahiyning tarjima uslubi poetik tafakkur bilan uyg‘unlashgan. U “Guliston”dagi hikmatlarni nafaqat tarjima qilgan, balki ularni o‘z ijodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda o‘zbekcha ifoda vositalari orqali yangidan yaratgan. Uning she‘riy ifodasi, qofiyalangan jumalari, tashbeh va istioralari orqali matnga poetik ruh bag‘ishlangan. Sayfi Saroyi esa tarjimada soddalik, mazmunning aniq yetkazilishiga urg‘u bergan. U asarning hikmatli jihatini saqlagan, biroq uslubda yuksak poetiklik emas, balki amaliy nutqqa yaqinlik seziladi. Bu uning tarjimasini ko‘proq didaktik maqsadga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Xulosa.

Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asarining Ogahiy va Sayfi Saroyi tomonidan amalga oshirilgan tarjimalari o‘zbek tarjimashunosligi tarixida muhim o‘rin tutadi. Har ikki tarjimon o‘z davri, til imkoniyatlari va estetik qarashlari asosida asarni tarjima qilgan. Sayfi Saroyi xalq tiliga yaqin, tushunarli tarjima yaratgan bo‘lsa, Ogahiy badiiy, she‘riy ruhda yuksak uslub bilan tarjima qilgan. Bu ikki tarjima o‘zbek tilining turli bosqichlaridagi imkoniyatlarini va tarjimonlik madaniyatini ko‘rsatib beradi.

REFERENCES

1. Ergash Ochilov, “Barhayot siymolar”. “O‘zbekiston”, T., 2012-yil.
2. Bobur Udayev. Sa’diy Sheroziy “Guliston” asari tarjimalarida adaptatsiya masalalari// Magistrlik dissertatsiyasi. Toshkent-2018.
3. Botirovich A S. “Tarjimashunoslikda uslub muammosining o‘rganilishi”. Ta’lim fidoyilari 18(5):359-362
4. Ogahiy “Guliston”. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent - 1977.
5. Sa’diy Sheroziy “Guliston”. Nashriyoti davlati Tojikiston. Dushanbe – 1962.
6. Sayfi Saroyi “Guliston bit-turkiy”. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent - 1968.
7. O‘zbek adabiyoti tarixi. I tom. Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. “Fan”, T., 1977-